

Tijorat banklarining jami kreditlar qoldig‘i 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 471,4 trln. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning boshidagiga nisbatan qariyb 1,2 barobar oshdi. Milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan nominal foiz stavkasi 2022-yil yakunidagi 22,3 foizdan 2023-yilda 24 foizgacha ko‘tarilgan. Bunda kreditning real foiz stavkasi sezilarli darajada, ya‘ni 10 foizdan 15,2 foizgacha ko‘tarilgan.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash mumkin, mamlakatimizda bank-moliya tizimini takomillashtirish bosqichlari o‘z vaqtida hamda sifatli amalga oshirilmoqda. Bir necha yillardan so‘ng davlatimizni ushbu yo‘nalishda jahon reytingida yuqori o‘rinda ko‘rsak ajab emas. Bank-moliya tizimi nafaqat iqtisodiyotga balki, ijtimoiy sohalarga bevosita va bilvosita o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu sababdan bu islohotlarni samarali kechishi mamlakatimiz aholisiga ham bog‘liq.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.***

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 12.09.2023 yildagi “Respublikada bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari.*
2. *O‘zbekiston milliy axborot agentligi sayti – “Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” maqola 2022-yil.*
3. *Bank.uz web-sayti – “O‘zbekiston bank tizimining barqarorligini saqlamoqda” maqola 2023-yil.*
4. *Aniq.uz web-sayti – “O‘zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasi tahlili” maqolasi 2023-yil.*
5. *“Pul, kredit va banklar” kitobi – “bank tizimini isloh qilish” mavzusi 2020 yil 30-35 sahifa.*

## **AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING IQTISODIYAHAMIYATI**

***Nematullayev Hamidullo Azizillo o‘g‘li***  
*Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti*  
*talabasi*

Bugungi kunda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar iqtisodiy negizi keskin o‘zgarib bormoqda. Бозор муносабатлари uchun turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar amaliy faoliyat olib bormoqdaki, ularning tahlilini olib borish, baholash, ular tuzilmasidagi o‘zgarishlarni keng ilmiy tadqiq etish, ular faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganish bu borada ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish o‘z navbatida dolzarblik kasb etadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etish jamiyatning samarali faoliyat yuritishi va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Asosiy muhim jihatlar quyida keltirilgan:

1. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish: Korporativ boshqaruv muhim qarorlar qabul qilishda shaffoflik va adolatni ta‘minlash, shuningdek, ularga jamiyat faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini berish orqali aksiyadorlarning

huquq va manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. 2. Riskni kamaytirish: Yaxshi boshqariladigan kompaniyalar kuchliroq va samaraliroq boshqaruvga ega bo‘lishadi, bu esa o‘z navbatida aktsiyadorlar uchun xavfni kamaytiradi va investitsiyalarni rag‘batlantiradi. 3. Investitsiyalarni jalb qilish: Korporativ boshqaruv kompaniyaning shaffofligi va ishonchliligini ta‘minlaydi, bu esa institutsional va xususiy investorlardan sarmoyalarni jalb qilishga yordam beradi. 4. Barqarorlik: Yaxshi boshqariladigan kompaniyalar uzoq muddatli maqsadlarga erishish va barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishga intilishlari sababli uzoq muddatda barqaror bo‘lishga intiladi. 5. Mas‘uliyat va oshkoralik: Korporativ boshqaruv mas‘uliyat, shaffoflik va qarorlar qabul qilish jarayonlarida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki tamoyillarini o‘z ichiga oladi va shu orqali jamiyatning kompaniyaga ishonchini oshiradi.

6. Aktsiyalarning tasnifi: Boshqaruv organlarining faoliyati aktsiyalarni tasniflashga yordam beradi, bu esa har bir aktsiyadorning aktivlari va aktsiyalari tarkibini alohida ko‘rsatib beradi.

Korporativ boshqaruv zamonaviy aktsiyadorlik jamiyatlarini boshqarishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u korporatsiya rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan turli guruhlar manfaatlarining muvozanatini ta‘minlash orqali rivojlanishning qo‘shimcha raqobatdosh ustunliklariga erishishga va shu asosda moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik darajasini oshirishga yordam beradi. Aktsiyadorlik jamiyatini boshqarish – bu uning ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlik qilish mexanizmi yoki tizim va ular yordamida ishtirokchilar o‘z manfaatlarini namoyon qiladigan usullardir. Biroq ushbu tizim mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalarni boshqarishdan farq qiladi, chunki aktsiyadorlik jamiyatining mol-mulki ko‘pchilik aktsiyadorlarning ulushlaridan hosil bo‘ladi. Aktsiyadorlik jamiyatini boshqarish tizimi jamiyat faoliyatining asosiy vazifalarini hal etishda aktsiyadorlarning xohish-istaklari bildirilishini nazarda tutadi. U mulkdorning fikrini bayon etadi va ularning manfaatlarini himoya qiladi.

Aktsiyadorlik jamiyatining aktsiyadorlari, menejerlari, xodimlari, mijozlari, xamkorlari va yetkazib beruvchilari, ya‘ni manfaatdor shaxslari, davlat va jamiyat manfaatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish orqali faoliyat olib boradi. Aktsiyadorlik jamiyatida boshqaruv organi rahbari va ijro tarkibi tanlovini shunday asosda olib borish kerakki, bunda shaxsning malakasi ham, fe‘l - atvori ham uning aktsiyadorlik jamiyati strategik vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha bajaradigan ish harakteriga mos bo‘lishi lozim. Aktsiyadorlik jamiyatining turli toifadagi rahbarlari, yetakchi mutaxassislari va xodimlari mehnatini eng yangi texnologiyalarni, shuningdek, hisoblash texnikasini qo‘llash orqali maksimal darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Boshqaruvning oliy va ijro organlari, shuningdek, aktsiyadorlik jamiyati menejeri va xodimlari o‘z vazifalarini bajarishida bir-birini amalda takrorlashiga yo‘l qo‘ymaslik, ayni chog‘da, ular o‘zaro bir-birini almashtira olishi darajasining yuksakligini ta‘minlash muhimdir. Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil

etish aksiyadorlar, direktorlar kengashi va jamiyatning yuqori rahbariyati o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tamoyillar va tartiblarni belgilashdan iborat. Bu aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga va tashkilotning samarali va shaffof ishlashini ta‘minlashga qaratilgan boshqaruv tizimi hisoblanadi.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etish jamiyat faoliyati samaradorligi va barqarorligini ta‘minlash, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etish ochiqlikni ta‘minlash, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va jamiyatning samarali faoliyat ko‘rsatishida muhim ahamiyat kasb etadi. U investitsiyalarni rivojlantirish va jalb qilishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida tashkilotning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.* <https://lex.uz/docs/5841063>
2. *Ашуров З.А. Совершенствование организационно-экономического механизма корпоративного управления в акционерных предприятиях. Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам. Ташкент – 2019 г.*
3. *Gafurov A.B. Korporativ boshqaruv tizimining shakllanishi va uning bozor iqtisodiyotida tutgan o‘rni // «O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy rivojlanishi: milliy tiklanishdan–milliy yuksalish sari» mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. – Toshkent. 2018. 112-114–b.*
4. *Tursunova N.R. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta‘minotni samarali tashkil etish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – TMI.: Toshkent – 2019, 21 b.*

## **TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLARGA TRASFOMATSIYA QILISH**

**Qambarov Abrorjon Anvarjon o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi  
MBA-banking yo‘nalishi tinglovchisi*

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil etishda, avvalom bor, ularda mukammal tarzda hisob siyosatini shakllantirish, har qanday foydalanuvchilar uchun tushunarli bo‘lgan va samarali boshqaruvni ta‘minlovchi moliyaviy hisobotlarni tuzish kabi uslubiyatlarni yaratish lozim bo‘ladi.

O‘zbekistonda bank tuzilmalarini jahondagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari qatoriga kirishini ta‘minlash va bu sohada jahon amaliyoti yutuqlarini bevosita bank tizimi faoliyatiga qo‘llash, jahon bank tizimidagi banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzishning kontseptual va o‘ziga xos asoslarini ishlab chiqarish va bank amaliyotiga qo‘llash bevosita banklarning